



KITOBSEVAR INSON OBRAZINI KULOLCHILIK SAN'ATIDA IFODALASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI

Nazarova Marjona Ravshan Qizi

Termiz davlat universiteti. Milliy libos va san'at fakulteti. "Badiiy grafika va dizayn" kafedrası. Tasviriy va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.

Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich

Termiz davlat universiteti Registrator ofisi direktori. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. turayev@tersu.uz

Annotatsiya: Maqolada O'zbek kulolchiligidagi badiiy uslub uzoq davr davomida shakllanib, ayrim tumanlarda idish-tovoqlar turlari va naqshlarining o'ziga xosligi saqlanib kelmoqda. Idishlarga beriladigan naqshlar asosan qa-lami, chizma yoki xarroji uslubida amalga oshirilgan, ba'zan ular birgalikda ishlatilgan deb yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: idish-tovoqlar, kulolchilik san'ati, kulollik charxi, milliy san'atning ilk namunalari, idish-tovoqlar, xorazm kulolchiligi tarixi.

Аннотация: В статье подчеркивается, что художественный стиль узбекской керамики формировался на протяжении длительного периода времени, и в некоторых регионах сохранилась уникальность типов и узоров посуды. Узоры на посуде выполнялись преимущественно в стиле пера, рисунка или гравюры, иногда использовались оба метода.

Ключевые слова: Посуда, гончарное искусство, гончарный круг, ранние образцы национального искусства, посуда, история хорезмской керамики.

Abstract: The article emphasizes that the artistic style of Uzbek ceramics evolved over a long period of time, with some regions preserving unique types and patterns of pottery. The designs on the pottery were primarily executed using pen-and-ink, drawing, or engraving techniques, with both methods sometimes used.

Key words: Tableware, pottery, potter's wheel, early examples of national art, tableware, history of Khorezm ceramics.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi davrda jahon madaniyati va san'atida inson ma'naviyatini yuksaltirish, intellektual salohiyatni oshirish hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish katta ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasida uchinchi Renessans poydevori qo'yilayotgan bir davrda, yetishib kelayotgan yosh avlodni kitobga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy dunyosini boyitish va shakllantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va targ'ib qilishga doir farmon hamda qarorlari ushbu mavzuning nafaqat ijtimoiy, balki badiiy-estetik nuqtayi nazardan ham dolzarbligini belgilab beradi. Kulolchilik san'atida ramziylik ayniqsa muhim ahamiyatga ega.



Ingliz kuloli va san'atshunosi Bernard Lich kulolchilikni "shakl va ruh uyg'unligi" deb atagan. Uning fikricha, keramika buyumi nafaqat amaliy vazifani bajaradi, balki ramziy mazmun orqali insonning ichki dunyosini ham ifodalaydi. Sharq kulolligida esa suv, hayot, hosildorlik kabi tushunchalar naqsh va shakllar orqali ramziy tarzda beriladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- "Kitobsevar inson" obrazini yaratishda kulolchilik san'atiga xos dekorativ stilizatsiya, plastik shakllantirish va ramziy ifoda usullariga asoslangan badiiy model ishlab chiqildi
- Dekorativ kompozitsiyada inson obrazining ma'naviy-psixologik holatini ochib berishda kulolchilikda rang (angob va sir), faktura va hajmning estetik mutanosibligi ilmiy jihatdan asoslab berildi
- "Kitobsevar inson" mavzusini ifodalashda kulolchilik san'atida an'anaviy texnikalar va aralash usullarning badiiy imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning obraz yaratishdagi samaradorligi isbotlandi

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari va yaratilgan badiiy ishlanmalar kitobxonlikni targ'ib qiluvchi ijtimoiy plakatlar, kitob grafikasi bezaklari, zamonaviy interyer dizayni hamda oliy ta'lim muassasalarida "Kompozitsiya" va "Kompyuter grafikasi" fanlarini o'qitishda uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot materiallaridan badiiy galereyalar, ijodiy studiyalar va madaniy-ma'rifiy markazlar faoliyatida ko'rgazmali vosita sifatida foydalanish ko'zda tutilgan.

Adabiyotlar tahlili. Kulolchilik san'ati qadimgi Misr, Ossuriya, Bobil, Yunoniston va Xitoyda yuksak taraqqiyotga erishgan. Kulolchilik buyumlari sopol va keramika deb atalmish chinni, fayan va mayoliklardan tayyorlanadi. Badiiy kulolchilik atamasi XIX asrning oxirlarida paydo bo'lgan va odatda faqat o'sha davrdan boshlab ishlab chiqarilgan sopol idishlar uchun ishlatiladi. U zavod sharoitida ishlab chiqarilgan, ammo dizayner yoki badiiy rahbarning hech bo'lmaganda yaqin nazorati ostida malakali ishchilarni ishlatgan holda nisbatan kam miqdorda ishlab chiqariladigan keramika uchun ishlatiladi. Studiya idishlari bu ishlab chiqarish bosqichlarini ko'pincha yoki ko'p qismini bajaradigan rassom-kulolning amaliy ishtiroki bilan yanada kichikroq hajmda ishlab chiqarilishi kerak bo'lgan qadamdir. Badiiy kulolchilik buyumlarini ishlab chiqaradigan eng muhim mamlakatlar Angliya va Frantsiya bo'lib, tez orada AQSh. Amerika badiiy sopol idishlari ko'p o'xshashliklarga ega, ammo ba'zi farqlar, Evropa ekvivalentlari bilan farqlanadi. Ushbu atama G'arb dunyosidan tashqarida tez-tez ishlatilmaydi, faqat "xalq ijodi sopol idishlar", ko'pincha ba'zi qishloqlarda ishlatiladi. Kulolchilikning nodir sohasi, bu – chinni buyumlar tayyorlash tarmog'i bo'lib hisoblanadi.

Kirish (Introduction). Insonlar kulolchilik bilan neolit davridan beri shug'ullanib keladi. Maxsus loyly buyumlar qo'lda yasalgan, quritib olovda qizdirilgan. Kulolchilikda ishlatiladigan tuproq jahonning hamma yerlarida mavjudligi deyarli hamma xalqlarda kulolchilikning keng tarqalishini ta'minladi. Kulolchilik bilan dastlab ayollar



shug'ullangan, kulollik charxining paydo bo'lishi bilan erkaklar ham bu ishga jalb qilingan. Idishlar maxsus o'choq va xumdonlarda pishirilgan. Kulolchilikning sodda usullari Osiyoning tog'liq hududlarida yashovchi xalqlarda hozir ham mavjud.

Kulolchilik O'zbekistonning hamma joyida uchraydi. Ammo badiiy buyumlar yaratishda eng yirik markazlardan Rishton, G'ijduvon, Shahrisabz, Xiva, Xonqa, Sa'marqand, Toshkent qadimdan mashhur bo'lgan. Masalan, Rishton kulollari yaratgan sirli idish va sopol buyumlar o'zining nozik va murakkab naqshlari, bo'yoqlar koloriti, ayniqsa, och ko'k kobalti va feruza rangli bir necha ohangliligi bilan ajralib turadi. Hozirgi Rishton buyumlaridagi qalami uslubida yaratilgani naqshlar yirik va dekorativ xildagi ornamentli. G'ijduvon sopol idishlari o'zining rang boyligi va qatlamliligi bilan ko'zga tashlanadi. Ularda ham xatlami uslubida to'q jigarrang fonida yashil, to'q sariq, to'q ko'k va qi-zil g'isht rangli naqshlar bir necha qatlamda berilgan bo'lib, bo'rttirilgandek seziladi. Hozirgi Shahrisabz ustalari yirik ornamentli qizil-jigarrang fonda yashil, sariq, qizg'ish va ba'zan ko'k ranglar bilan idish-tovoqlarni bezaydilar. O'zbek kulolchilik san'atining kelib chiqishi qadimgi davrlarga, miloddan avvalgi ming yilliklarga borib taqaladi. O'sha davrda yasalgan sopol buyumlar, asosan, turli xil turar joylarda topilgan arxeologik qazilmalarda namoyon bo'ladi. O'sha davrdagi sopol buyumlar amaliy jihatdan foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, ular milliy san'atning ilk namunalaridan biriga aylangan. O'ziga xos o'ymakorlik naqshlari, ranglar uyg'unligi va shakl yasalishi orqali bu buyumlar go'zallik va nafislikni aks ettirgan.

1930 yili R.Matjonov kooperativ arteliga kirib kulolchilik ishlarini davom ettirdi. O'sha davrda kulollar juda kamayib ketgan edi. Uning bu og'ir ishlariga turmush o'rtog'i yordam bergan. 1990 yillarda Xorazm ustalarining ijodida kadimiy o'simliksimon naqshlarni o'zlashtirish jarayoni kuchayib bordi. Ayniksa, bu jarayon Raimberdi Matjonov ijodida namoyon bo'lgan. R.Matjonov ko'pincha sopol buyumlariga to'q ko'k rangni ishlatgan. Shuning uchun ham uning asarlarining aksariyatida xavorang ko'k rangning o'ziga xos to'q tusi ustunlik qiladi. Usta naqqoshlik sir asrorlarini mukammalo'rgangan. U shu o'rgangan naqshlarini kulollikbuyumlariga qo'llashga astoydil intilib, XIX -XX asr Xiva koshinkorlik an'analarini boyitadigan buyumlarni yaratdi. Kulol ishlab chiqarayotgan buyumlarda ham, koshinda ham uch xil oq, yashil, lojuvard ranglardan foydalangan. Xorazm kulolchiligi tarixi, uning an'anaviy texnologiyasi hamda mahsulot ishlab chiqarish tarixiy negiziga oid ma'lumotlar juda chuqur va qadimiydir.

Qolaversa Xorazm kulollari yaratgan kulolchilik mahsulotlari o'zining nafisligi va betakrorligi, shuningdek o'ziga xos ishlab chiqarish texnologiyasi bilan dunyo e'tirofiga sazovor bo'ldi va hozirgacha butun dunyo san'at ixlosmandlarini lol qoldirib kelmoqda. Xorazmning kulolchilik sohasi o'sha davrdagi mamlakatning iqtisodiy va siyosiy taraqqiy etishi va rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Markazlashgan feodalizm davrida, ayniqsa XV asrdan boshlab, to XIX asrlargacha Xorazm o'z boshidan iqtisodiy taraqqiyotni va o'z navbatida iqtisodiy inqirozni ham kechirganligi tarixiy



ma'lumotlardan ma'lum, lekin Xorazmning (Xiva) kulolchilik ishlab chiqarish sohasi bilan bog'liq hayoti o'sha davr nuqtainazaridan iqtisodiy hayotni yanada ko'tarilishiga turtki ham bo'lgan. O'rta Osiyoning qadimiy g'oyat nafis chiroyli shaklga ega bo'lgan gul va nuqtalar bilan bezatilgan kosa, piyola, tovoq, choynak, vaza, ko'za, xurmacha, kuvalak, zeb-ziynatlar va boshqa kulolchilik-keramik buyumlari qadim-qadimdan dunyo ahli e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Chunki, O'rta Osiyo amaliy san'ati ustalarining kulolchilik buyumlari o'zining konstruksion qulayligi, jarangdorligi, jilolanuvchi tabiiy bo'yoqlari, gullar va tabiat ramzini bezab, g'oyat nozik badiylashtirilgan tasvirlari dunyoni barcha millat vakillariga yoqqan. Chunki «San'at – millat va odam tanlamaydi». Kulolchilik xalq amaliy san'ati turlaridan bo'lib, hunarmandchilikning loydan, gildan turli buyumlar, idishlar, qurilish materiallari tayyorlaydigan sohaiga kiradi. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tabiiy tuproq bo'lib, loy qancha ko'p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo'ladi. Kulolchilikning bezak san'ati bo'lgan koshinkorlik san'ati Markaziy Osiyoning me'morchiligida keng rivojlandi. Mamlakatimiz hududida kulolchilikni ko'plab asosiy maktab va markazlari mavjud. Rishton, Buxoro, G'urumsaroy, Toshkent, Xorazm, Samarqand va Qashqadaryo kulolchilik maktablarini sanash mumkin. Ushbu kulolchilik maktablari bir biridan yaratilgan mahsulotlarni tayyorlanish uslubi, naqsh-gullari, rangi va pardozi bilan biri-biridan farqlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak. San'at faoliyatning yetakchi faoliyatga aylanishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga, kishilarning ma'naviy ongi rivojlanishiga bog'liq. Bu kulolchilik san'atini puxta o'rganish uchun insonda, avvalo, iste'dod bo'lishi kerak, - deydi usta kulol. – Mana shu hunar sir-asrorlarini qunt bilan, erinmay o'rgatgan ustozim, rahmatli usta kulol Umar Jo'raqulovdan bir umr minnatdorman. Albatta, ushbu san'atni o'rganish mumkin, ammo o'z yo'li, uslubiga ega bo'lish juda murakkab jarayon. Xalq xunarmandchiligi va amaliy san'atining tur va shakllari haqida ham ayrim ma'lumotlarga ega bo'lish biz uchun zaruratdir.

Bizning davrimizga kelib katta-katta shaharlardagi axolining ko'pchilik qismini hunarmandlar tashkil etmokda. "Hunar-hunardan unar" qabilida yoshlarimiz uchun maxsus san'at maktablari va boshqa turdagi o'quv yurtlarining tashkillanishi ham asosiy omillardan biriga aylanib kelmoqda.

Bu masalada davlatimiz olib borayotgan ijtimoiy-maishiy turmush tarzimizni yuksaltrishga qaratilgan ishlarning mohiyatini baholash ancha quvonarli holdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. S.Bulanov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T., 1991 yil.
2. M.Rahimov. O'zbekiston badiiy keramikasi. T., 1961 y.
3. A.Turg'unov. O'zbek kulolchiligi san'atining hududiy xususiyatlari. T. 2001.
4. B.Oripov. Tasviriy san'at asoslari. N., 1994 y.
5. E.Xoxlova. Badiiy keramika. M., 1978 y.



6. E.Sayko. Keramika ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasining tarixiy taraqqiyoti. M., 1982 y.

7. B.Oripov. Jahon san'ati tarixi. 3 qismli. N., 2004-2007 y.